



TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA YER RESURSLARINI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI

Shoxsanam Kamarova

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” milliy tadqiqot universiteti magistranti*

E-mail: anorbayevashoxsanam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tog' va tog'oldi hududlaridagi yer resurslarini boshqarish, yer munosabatlari muammolarini hal etish bo'yicha xorij tajribasi yoritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi tog' va tog'oldi hududlari bilan taqqoslangan.

Kalit so'zlar: yer resurslari, yer munosabatlari, intensiv foydalanish, allyuvial fanatlar, lalmi yerlar, yaylovlar, bioresurs, qishloq xo'jaligi.

FOREIGN EXPERIENCE OF LAND RESOURCE MANAGEMENT IN MOUNTAIN AND MOUNTAIN REGIONS.

Abstract: This article covers the foreign experience of managing land resources in mountain and sub-mountain regions,, solving land relations problems, and compares it with the mountain and sub-mountain regions of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: land resources, land relations, intensive use, alluvial fan lands, pastures, bioresources, agriculture.

Kirish. Yer resurslarini boshqarish – bu jamiyat va davlatning yer resurslaridan foydalanishda yer resurslarining samaradorligini oshirish uchun muntazam ravishda, ongli va aniq maqsadga qaratilgan ta'sir ko'rsatishidir.

Yer munosabatlarining ob'yekti yer resurslari hisoblanadi. Yer resurslarini boshqarish esa ulardan qanday foydalanishni rejalashtirish, tashkillashtirish va tartibga solish hamda nazorat qilishdan iborat bo'lishi zarur.

Respublikamizda yer resurslarini boshqarish, davlat yer fondidan foydalanish va tashkillashtirish ishlari maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari tomonidan olib boriladi.

Boshqarish deganda, boshqariladigan tizimlarga ta'sir etish jarayoni tushuniladi. Har qanday murakkab tizimlar shuningdek, yerdan foydalanish tizimi o'zining boshlang'ich parametrlarini, o'zlarining sifat holatlarini ma'lum bir maqsad tomon yo'naltirilgani uchun ob'yektiv ravishda boshqarishni talab qiladi. Qisqacha qilib aytganda, boshqarish – bu boshqariladigan tizimlarni, ularning ichki mazmuni bilan mavjud bo'lishning ob'yektiv zaruriyatidir.

Yer resurslarini boshqarishning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

✓ Siyosiy – yer resurslaridan oqilona foydalanish borasida davlatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda ekologik vazifalarini bajarilishini ta'minlaydi;



- ✓ Huquqiy – qonuniy hujjatlarda belgilangan huquqiy me'yorlar asosida yerni saqlash va oqilona foydalanish;
- ✓ Ilmiylik – fan-texnika taraqqiyoti borasida erishilgan yutuqlarni hisobga olgan holda, yer resurslarini boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;
- ✓ Iqtisodiy – yer resurslaridan samarali foydalanish shartlarini belgilash;
- ✓ Tashkiliy-texnologik – yer resurslarini asrash va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi", "Qishloq xo'jaligi kooperativi to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, "Davlat yer kadastri to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi sababli mamlakatimizda yer resurslaridan yanada samarali va oqilona foydalanishning huquqiy imkoniyati yaratildi.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizdagi tog' va tog'oldi tabiat majmualarini geografik jihatdan o'rganishda Akromov Z.M., Abdulqosimov A.A., Alibekov L.A., Baratov P.B., Ro'ziyev A., Vahobov H.V., Jumayev T., Zokirov SH.Z., Mamatqulov M., Mamatov A.M., Rafiqov A., Halimov R.H. va boshqalar ko'plab tadqiqot ishlari olib borishgan. Ularning tadqiqotlari dolzarb masalalarga: jumladan tog' va tog'oldi tabiatini o'rganishda tizimli yondashuvga, tog'-kon sanoatini barpo etishda tabiiy sharoitlarning o'zgarish xususiyatlariga, tabiiy geografik jarayonlarni o'rganishda muhandis geomorfologik jihatlariga, antropogen jarayonlarni aerokosmik fotosuratlar asosida o'rganish masalalariga, tog' va tog'oldi tabiatidan foydalanishning tabiiy va iqtisodiy tamoyillariga hamda ekologik va geoekologik jihatdan baholash va bashorat qilishga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqot ishlarida ko'proq aniq bir tabiiy komponent, ma'lum bir jarayon va hodisalar hamda inson ta'siri natijasida vujudga kelgan oqibatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan.[2]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ob'yekti xorijiy mamlakatlarning tog' va tog'oldi hududlaridagi yer resurslaridan foydalanish darajasi va yer munosabatlari muammolarini hal etish tajribasi hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida barcha sohalarni rivojlantirish uchun soha doirasidagi jahon tajribasini o'rganish, uni tahlil qilish va uning afzal tomonlarini davlat ichki tizimiga joriy qilish samarali usullardan biri hisoblanadi. Ayrim chet mamlakatlarida, ayniqsa yer bozori rivojlangan davlatlarda yer resurslaridan foydalanishni boshqarishni tashkil etish boshqa davlatlarnikidan keskin farq qiladi. O'zbekiston uchun yerdan foydalanishni boshqarish xarakteri bo'yicha yaqin bo'lgan MHM va Markaziy Osiyo mamlakatlari hisoblanadi. Sababi, ushbu region uchun sug'oriladigan dehqonchilik va asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining turlari umumiy hisoblanadi. Shuningdek, MHM barcha mamlakatlarida siyosiy tizim o'zgardi hamda demokratik iqtisodiyotning agrar sektorida, shu jumladan yer munosabatlarida ham islohotlarni amalga oshirishga o'zlarining siyosiy moyilligini namoyon qilishdi, shu maqsadda tegishli tarkiblar ham tuzildi, yer qonunchiligining bazasi yaratildi,



boshlanish shartlari va iqtisodiy hamda yer o'zgarishlarini bir necha bosqichda olib borish zaruriyati amalda deyarli bir xildir. Ushbu regiondagi mamlakatlar yerdan foydalanishning boshqarishdagi yagona farqi iqtisodiy, shu jumladan yer islohotlarini, boshqarishning institutsional tarkibini joriy etishning turli darajada ekanligi hisoblanadi.⁴

Tahlil va natijalar. Tojikiston Respublikasi

Tojikiston Respublikasining tog' va tog'oldi hududlaridan intensiv foydalanish qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini oshirish imkonini beradi. Hududda ancha keng tog'lararo chuqurliklar, allyuvial fanatlar, qiya yerlarning katta maydonlari hamda daryo vodiylarining cho'zilgan qismlari mavjud. Tarixiy jarayonlarning turli bosqichlarida tog'li hududlarda yerlarni o'zlashtirish va undan foydalanishga munosabatlar o'zgardi. Ayniqsa, 40-50-yillarda tog' va tog'oldi hududlarini bahorgi-yozgi yaylov sifatida, shuningdek, tog'-kon sanoatini rivojlantirish va rekreatsiya maqsadlari uchun foydalanish zarurligi to'g'risidagi g'oyalar ustunlik qildi. Bunday munosabatlar tog'li hududlarning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanishda bir qator yo'qotishlarga olib keldi. Masalan, Gornaya Matchada 3000 gektardan ortiq maydonga ko'chirilishidan oldin ekilgan bog'lar saqlanib qolgan bo'lsa-da, ta'mirlash va nazoratning yo'qligi sababli sug'orish tarmog'ining holatiga ta'sir ko'rsatdi hamda yerning salbiy transformatsiyasiga olib keldi. 70-yillarda aholi qaytib kelishni boshlagandan keyin qiyaliklarda dehqonchilik ko'nikmalari butunlay yo'qolgan.

Hozirgi vaqtga kelib Tojikistonning tog'li hududlari asosan sug'orma va lalmikor dehqonchilikda hamda bahorgi-yozgi yaylov sifatida foydalaniladi. Lekin tog'li hududlarning tabiiy sharoiti va resurslarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning agrosanoat majmuasini rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Tojikiston Respublikasi tekisligidagi yerning 0,5% dan ko'proq qismi o'zlashtirilmagan holatda qolgan. Shu sababli respublika MDH mamlakatlari orasida aholi sonining eng yuqori o'sishi – yiliga 3% dan ortiq. Respublikaning tog'li hududlarini qo'shimcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish va mehnat resurslari ortib borayotgan vodiy rayonlaridan ishchi kuchini jalb qilishning asosiy hududi deb hisoblash mumkin.

Respublikaning tog' va tog'oldi hududlarini o'zlashtirish uchun katta mehnat va qiyinchiliklarni talab qiladi. Birinchi navbatda sug'orma dehqonchilik va suvning ko'tarilishi uchun nasos stansiyalari va boshqa inshootlarni qurish talab etiladi. Kelajakda qurilishi rejalashtirilgan GESlar baland tog'li hududlarda bu muammoni ijobiy hal qilishi mumkin.

Tabiiy iqlim sharoiti xilma-xil bo'lganligi sababli, yomg'irli dehqonchilik va yaylovlar maydonlari past tog'larda, o'rta tog'larda hamda baland tog'larda notekis joylashgan. Masalan, tog'oldi hududlarini asosan sug'oriladigan yerlar egallaydi. O'rta tog'larda ba'zan baland tog'larda ham alohida hududlar mavjud. Yomg'irli yerlar (lalmi yerlar) o'rta tog'li hududlarda joylashgan bo'lsa, yaylovlar barcha baland tog'li

⁴ Chertovitskiy A.S., Bazarov A.K. Yerdan foydalanishni boshqarish. O'quv qo'llanma. Toshkent, TIMI, 2009.



hududlarda, pichanzorlar esa asosan baland tog'li va past tog'li (Xatlon viloyati) hududlarida mavjud.

Tojikistonning tabiiy o'ziga xosligi turli xil iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshirishga imkon yaratadi, balki ularning hududiy taqsimlanishini ham belgilab beradi. Shu sababli ham alohida hududlarning bioiqlim resurslarining vertikal zonalligi hamda xilma-xilligi tog'oldi hududlaridan to tog'li hududlargacha bo'lganligi tufayli respublikada alohida tabiiy zonalarda xo'jalik faoliyatining boshqa yo'nalishi ham rivojlangan.

Aniq sharoitlarning ta'sirini o'rganish, vertikal zonalar va hududlarni yaxshilash orqali nafaqat ekinlar hosildorligini, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining strukturasi, qolaversa ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ham aniqlash imkonini beradi.

So'nggi yillarga kelib, Tojikistonning tog' va tog'oldi hududlarida qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarning rivojlanishi uchun tabiiy geografik sharoitlarni yaxshilash bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Hozirgi sharoitda tog' va tog'oldi hududlar tabiiy ishlab chiqarish kuchlarini birinchi o'rinda o'simlik, tuproq, dehqonchilik tabiati va boshqa ekologik sharoitlarni har tomonlama o'rganishni taqozo etadi. Faqat shu sababligina bioresurslardan iqtisodiy foydalanish bo'yicha printsiplial to'g'ri takliflar ishlab chiqish mumkin. Ularning xilma-xilligi va xususiyatlari Tojikistonning tog' va tog'oldi hududlari vertikal zonaliligining xususiyatiga ham bog'liq.

O'tmishda tog'li hududlarda qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ko'p turdagi ekinlar unumdorligi pastligi salbiy ta'sir ko'rsatgan. Biroq xalq seleksiyasi tog'li hudud sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan juda mahsuldor va ertapishar oziq-ovqat turlarini va yem-hashak navlarini ishlab chiqdi. Qadimdan tog'li hududlarning yomg'irli sharoitida arpa, bug'doy, yasmiq, no'xot, zig'ir, guruch va kunjut yetishtirilgan.

Akademik N.I.Vavilov Tojikistonga bir necha bor tashrif buyurgandan so'ng, bu mintaqaning tog'li hududlari qishloq xo'jaligining eng qadimiy markazlaridan biri deb atagan. Tog'li hududlar bo'ylab qilingan ekspeditsiyadan so'ng, u bu hududning madaniy muhiti to'g'risida shunday fikr bildirdi: "Shug'non va Ro'shanda ilk marotoba asl noliguliyali bug'doyni turli xil shakllarda topish mumkin edi. Bunday bug'doy hattoki ilgari botoniklarga ham noma'lum bo'lgan...".

N.I.Vavilov Tojikistonning tog'li hududlarining tabiiy xususiyatlari va resurs imkoniyatlarini chuqur o'rganib chiqib, tadqiqotchilar e'tiborini bu hududning tunganmas boyligi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun qaratdi.

Mutaxassislarining olib borgan hisob-kitoblariga ko'ra, Tojikistonning tog' va tog'oldi hududlaridagi yomg'irli yerlar fondining deyarli yarmi obod lalmi yerlarga tegishli. Hozirgi vaqtda Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida yomg'irli dehqonchilikni rivojlantirish uchun yaroqli yerlarining mavjudligi bo'yicha O'zbekistondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. L.M.Gurvich va boshqalar 30-yillarda Tojikistonda 1 million 400 ming gektar lalmi yer mavjudligini aniqlashgan.



A.N.Rozanov tomonidan (1950) lalmikor dehqonchilikda foydalanishga yaroqli yerlarning umumiy maydoni 1140,3 ming gektar deb ta'kidlab o'tilgan.

Hozirgi vaqtda tog'li hududlar va tekisliklar o'rtasida sezilarli darajada iqtisodiy orqada qolish kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi tog'li hududlardaning qishloq xo'jaligi salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayotganligidir.

Tojikiston Qishloq xo'jaligi vazirligining Tuproqshunoslik instituti tadqiqotiga ko'ra, qiyaligi 15° dan 30° gacha (3699,7 ming gektar) bo'lgan yerlar qishloq xo'jaligining muhim salohiyati bo'lib, kelajakda bu yerlar respublikani qishloq xo'jaligi bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynashi mumkin. Lekin, yerlarning qiyaliklarning tikligiga qarab taqsimlanishini to'g'risidagi ma'lumotlar ishonchli bo'lmasa ham, ular qiyalik qishloq xo'jaligini rivojlantirishda hududning imkoniyatlarini baholashga imkon yaratadi. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Garm zonasi va G'arbiy Pomirda 0-5° va 10-15° tik bo'lgan yerlarning yo'qligini ham sezish mumkin. Bizning fikrimizcha, Garm zonasi va G'arbiy Pomirda bunday yerlar mavjud, ammo bu to'g'risida ma'lumotlarning yo'qligini qiyaliklarning tikligini aniqlash metodologiyasining mukammal emasligi bilan izohlash mumkin.

Sh.Saidsharapovning (1995) ma'lumotlariga ko'ra, Tojikistonning tog'li hududlaridagi qishloq xo'jaligi yerlari (Garm zonasi, GBAO va Zarafshon vodiysi xo'jaliklari, dengiz sathidan 1100 dan 4000 metrgacha va undan yuqori balandliklarda joylashgan), shuningdek, Varzob va Xovalin viloyatlarida (Hisor va Ko'lob zonalarida) qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi 1373,3 ming gektar yoki 31,6%, sug'orildigan yerlar – 79,4 ming gektar yoki butun respublika maydonining 11,5% yerlar mavjud. Sug'oriladigan ekin maydonlarida tog'li hududlarning ulushi 9,8%, ko'p yillik plantatsiyalar 14,5%, shundan bog'lar 20%, tut o'rmonlari 20%, uzumzorlar 5,3%, yayalovlar 37,7% ni egallaydi.

Tog'li hududlarning qishloq xo'jaligi salohiyati tegishli toifadagi yerlarda oziq-ovqat ekinlarini yetishtirish imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Sababi, har bir toifadagi yerning o'ziga xos ixtisoslashuvi, uni sug'orish va yetishtirishni mexanizatsiyalash va qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish xususiyatlariga ega bo'lgan mustaqil birlik bo'lish ehtimoli mavjud.

Nishabliklarda bir yillik yokida ko'p yillik ekinlarni yetishtirish tabiiy-iqlim xususiyatlari va ularning samaradorligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Masalan, nishabli yerlar tuproqni mustahkamlovchi ko'p yillik ekinlar bilan band bo'lishi hamda madaniy yaylovlar uchun ishlatilishi kerak.

Tog'li hududdagi yerlar chorvachilikni ta'minlash uchun vodiy sharoitiga nisbatan yaxshiroq tabiiy ozuqa bazasi bilan ma'lum darajada qoplanadi. Tog'li hududlarning foydalanishdagi yaylovlari chorvachilik uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi. Masalan, respublika aholisining atigi 3 foizi yashovchi Pomirda barcha toifalarda respublika chorva mollarining 5 foizdan ortig'i, qo'y va echkilarning 11,2 foizi mavjud. Hozirgi vaqtda chorvachilikni yem-xashak bilan ta'minlash tog' va tog'oldi hududlaridagi lalmi yerlar va yaylovlar bilan bog'liq.



Tabiiy hududlarda chorva mollarini boqish muddati sezilarli darajada farq qiladi. Yaylovlardan foydalanish mumkin bo'lgan vaqti vegetatsiya davrining davomiyligiga, o'tning qayta o'sish imkoniyatiga ya'ni yaylovning qayta davomiyligiga bog'liq.

Yaylovlarning asosiy massivlari qish, bahor va yozgi yaylovlar uchun bo'lgan hududlar past va baland tog'larda joylashgan. Qishki va yozgi yaylovlar massivlari o'rtasida ming yillar davomida chorva mollarini ya'ni qo'y, echki, otlarni haydash usullari mavjud va ular bahor hamda kuzda uzoq vaqt davom etadi. Odatda, chorva mollari may oyining birinchi o'n kunligidan iyun oyining birinchi o'n kunligiga qadar yo'lda bo'ladi. Baland tog'li hududlardan ketish sentyabr oyidan boshlanib, oktyabr oyining oxirigacha davom etadi. Yomg'irli dehqonchilik zonasida chorva yo'llarining kengligi kamida 100 m, dam olish joylari esa kamida 20 gektar, boqish maydonlari esa kamida 100 gektar qilib belgilanadi. Alohida boqish maydonlari 1500 gektargacha bo'lgan maydonlarni egallaydi.

G.T.Sidorenkoning fikriga ko'ra, Tojikistonning tog' va tog'oldi hududlaridagi barcha bahorgi yaylov yerlaridan Jirg'ital va Sangvaro-Vanch yaylov-geobotonika subhududlari katta qiziqish uyg'otadi. Jirg'ital yaylovi hududi barcha chorva mollari uchun ayniqsa, yilqichilik uchun respublikadagi eng yaxshi yozgi yaylovlariga ega. Yozgi yaylovlar qishki yaylovlardan ancha masofada joylashganligi sababli ulardan yetarlicha foydalanilmayapti.

Mollarni qishdan yozgi yaylovga ko'chirishda bir nechta salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Salbiy tomoni bu mollarning uzoq masofa bosib o'tishi va natijada vaznda charchoq hamda go'shtning katta miqdorda yo'qotilishiga olib keladi. Bu muammoni bartaraf etishda bir qator yo'llarni qisqartirish, yaylovlarga chiqish yo'llarini yaxshilash, yaylov yerlarini muhofaza qilish va ko'priklar barpo etish muhim ahamiyatga ega. [3]

O'zbekiston Respublikasi bilan solishtirish natijalari.

O'zbekiston Respublikasi tog'li hududlari umumiy yer maydonining 29% ni tashkil qiladi (Babajanov A.R., 2018), Tojikiston Respublikasi hududining 93% ni 300 metrdan 7495 metr balandlikkacha bo'lgan tog'lar egallaydi. Hududining qariyb yarmini 3000 metr dan baland bo'lgan tog'liklar egallaydi.

(<https://uz.wikipedia.org/wiki/Tojikiston>)

Tojikiston Respublikasi tog'li hududlari bilan O'zbekiston Respublikasi tog'li hududlaridan bahorgi-yozgi yaylov sifatida foydalanishi deyarli bir xil. Lekin Tojikiston Respublikasi tog'li hududlarining tabiiy sharoitining yaxshiligi sababli, bu hududda agrosanoat majmuasini rivojlantirish imkoniyati yuqoriroq.

Tojikiston agrarindustrial mamlakat hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligining ulushi 25%, xizmat ko'rsatish soxasi 40%, sanoat sohasi 35% ni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 4,3 mln.ga, shundan ekinzorlar 827,6 ming ga, yaylovlar 3,2 mln.ga ga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i – dehqonchilik bo'lib, jami qishloq xo'jaligi mahsulotining 65% ni beradi. (<https://uz.wikipedia.org/wiki/Tojikiston>)



Tojikiston tog'li hududlaridan yaylov sifatida foydalanish tajribasini O'zbekiston tog'li va tog'oldi hududlarida qo'llasa bo'ladi. Sababi, O'zbekistonda yaylov chorvachiligi tog' va tog'oldi hududlarida foydalanishning asosiy va juda qadimiy shakli hisoblanadi. Respublikamizning tog' va tog'oldi hududlarida yaylov chorvachiligi qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i hisoblanib, aholini oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati xomashyosi bilan ta'minlaydi. Shu sababli ham respublika yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 10% tog'li hududlar hissasiga to'g'ri keladi.

Oltoy Respublikasi.

Oltoy respublikasining iqtisodiyoti asosan agrar va xomashyoga yo'naltirilgan. Respublika agrosanoat majmuasi tarkibida 130 ta qishloq xo'jaligi korxonalari va 1200 dan ortiq dehqon xo'jaliklari faoliyat yuritadi.

Respublikada qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 1791,5 ming ga, shu jumladan 143,3 ming ga ekin maydonlari yoki umumiy yer maydonining 8 % i, pichanzorlar 121 ming ga, yaylovlar 1523,2 ming gektarni tashkil etadi. 2011-yilda ekin maydoni 102 ming ga ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 1,3 % ga kam. Umumiy ekin maydonining 90% ini yem-xashak, 10% ga yaqinini g'alla va sabzavot ekinlari egallagan.

Hozirgi vaqtda respublikada kuchli va o'rtacha kislotali tuproqli ekin maydonlari 18,12 ming ga yoki umumiy o'rganilgan maydonning 14,2 % ni tashkil etadi. Bu tuproqlar asosan respublikaning past tog'li zonasi bilan chegaralangan bo'lib, uning ekin maydonlari asosan bo'z o'rmonlar hamda podzollashgan va yuvilgan chernozemlar (Mayminskiy, Choyskiy Turochak tumanlari) bilan ifodalanadi.

Tuproq kislotaliligining o'zgarish dinamikasini tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatdiki, respublikaning past tog'li hududlarida kuchli va o'rtacha kislotali tuproqlar salmog'i oshib bormoqda. Bu ko'rsatkich birinchi navbatda, tuproqning kimyoviy meliorativ holatining yo'qligi va organik o'g'itlarning yetarli darajada qo'llamaslik bilan bog'liq. Umuman olganda, respublika bo'yicha ishqorli tuproqlarning ulushi 45,8 ming ga ni yoki o'rganilgan ekin maydonlarining 36% ni tashkil qiladi. Ishqoriy tuproqlarning ulushi viloyatlarda sezilarli darajada yuqori: Ust-Kanskiy – 62%, Ongudayskiy – 59,1%, Qo'sh-Agachskiy – 67%,

Ust-Koksinskiy – 28% .

Oltoy respublikasining haydaladigan tuproqlarida ozuqa moddalarining balansi oxirgi 12 yil davomida salbiy natijani ko'rsatmoqda. Jumladan, 2005-yilda respublikada oziq moddalarining tanqisligi 73,5 kg/ga, shuningdek azot 32,6 kg/ga, fosfor 9,9 kg/ga, kaliy 31kg/ga ni tashkil etgan. "Gorno-Altayskaya" FDM SAS ma'lumotlariga ko'ra, respublikaning ekin maydonlarida ko'chma fosfor va almashinadigan kaliy miqdori hali hanuz pasayishda davom etmoqda. Bugungi kunga kelib, ekin maydonlarining 94% i fosforli, 64% i kaliyli o'g'itlarni qo'llashni talab qilmoqda. So'nggi 5 yil ichida Oltoy respublikasidagi kislotali tuproqlarning ulushi 8% ga, o'rtacha va kuchli kislotali – 3% ga oshgan.[4]

O'zbekiston Respublikasi bilan solishtirish natijalari.



Oltoy Respublikasi – Rossiya Federatsiyasi tarkibidagi respublika. Hozirgi kunda turizmi rivojlangan respublika hisoblanadi. Respublika yer resurslarini boshqarish tizimi O'zbekiston Respublikasidan farq qiladi. Jumladan mamlakatda davlatdan mustaqil yerdan foydalanish sub'yektlari mavjud. Ushbu sub'yektlar qonuniy doirada o'zlariga tegishli bo'lgan yer resurslarini ixtiyoriy tasarruf qilish huquqiga egadir. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Yer kodeksining 15-moddasiga ko'ra, "Fuqarolar va yuridik shaxslar yer uchastkalariga egalik qilishda teng huquqlidir. Davlat yoki o'z-o'zini boshqarish organlari tasarrufida bo'lgan yer uchastkalari fuqarolarga yoki yuridik shaxslarga mulk sifatida berilishi mumkin. Yer kodeksida va qonun hujjatlarida alohida ko'rsatilgan yerlar bundan mustasno."⁵

Xulosa qilish mumkinki, Rossiya Federatsiyasida yer resurslarini boshqarish tizimi quyidagi qismlarga bo'lingan:

1. Davlat boshqaruvi
2. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari boshqaruvi
3. Jismoniy va yuridik shaxslar boshqaruvi.

Xulosa. O'zbekiston O'rta Osiyodagi tekislik ko'p egallangan respublika hisoblanadi, uning deyarli 71% qismini tekisliklar egallaydi. Respublikaning faqatgina sharqiy qismi tog'lar bilan egallangan. O'zbekiston tog'lari O'rta Osiyoning tog'larining kichik bir qismini tashkil etadi va ularning ajralmas bir qismi hisoblanadi. O'zbekiston tog'lari asosan, Tojikiston va Qirg'izistondan boshlanadigan tog'larning shimoli-g'arbiy hamda janubi-g'arbiy chekkalarini egallaydi. O'zbekiston tog'lari sistemasi O'rta Osiyo tog'lariga xos bo'lgan tabiiy kompleks xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Shuningdek, O'zbekiston tog'lari iqlimi O'rta Osiyoga hos bo'lgan iqlim xususiyatlariga ya'ni kontinentallik, havoning quruqligi, quyosh nurining o'tkirligi hamda boshqa xususiyatlarga egadir.

Bugungi kunda xorij davlatlarining tog' va tog'oldi hududlarida qishloq xo'jaligi mavjud bo'lgani singari O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarida mavjud bo'lib, asosan yaylovlar, obikor va bahorgi yerlardan foydalanishga asoslangan. Tog' sharoitida qishloq xo'jaligi strukturasi yaylov chorvachiligi asosiy o'rinni egallaydi. Tog' yaylovlari chorvachilikning asosiy tabiiy ozuqa bazasi hisoblanadi. O'zbekistonda tog'li hududlarida dehqonchilik boshqa xorijiy davlatlar singari qishloq xo'jaligida ikkinchi darajada yoki qo'shimcha tarmoq o'rni hisoblanadi. Sababi, tog' va tog'oldi hududlaridagi dehqonchilik asosan obikor va lalmikor dehqonchilik bo'lganligi uchun ularning hosildorligi past va kam daromadligi bilan harakterlanadi. Buning sifatini yaxshilash uchun O'zbekiston tog' va tog'oldi hududlarida irrigatsiya tizimini rivojlantirish zarur. Tog' xo'jaliklarida injenerlik tipidagi kanallarni qurish, tog' jilg'alari va soylarning suvlari yig'iladigan suv omborlari qurishni tartibga solish zarur.

Hozirgi kunda O'zbekistonning tog' zonasida sanatoriya-kurort qurilishi, dam olish va turizm bazalari xorijiy davlatlar singari tobora kengayib bormoqda. Masalan,

⁵ Rossiya Federatsiyasi Yer kodeksi 2001 yil 10-oktyabr



Jizzax tumanining Zomin tog' o'rmon zonasida qishki sport markazi va sport sog'lomlashtirish kompleksi barpo qilingan.

Xulosa qilib aytganda, hozirda tog'larda infrastruktura yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli tog' xo'jaliklari katta zarar ko'rmoqda. Tog'li hududlar bilan bog'lab turuvchi ichki xo'jalik avtomobil yo'llari, aloqa va elektr liniyalari, kanalizatsiya, omborlar, zamonaviy irrigatsiya inshootlari qurilishi jahon tajribasidan orqada qolmoqda. Bu holat esa tog' va tog'oldi hududlarida qishloq xo'jaligi korxonalarining normal ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatib, tog'li hududlardagi yer resurslaridan foydalanish va uni o'zlashtirish darajasini pasaytiradi.

REFERENCES:

[1] Q.Raxmonov., SH.Narbayev., Z.Muqimov. Yer resurslarini boshqarish. O'quv qo'llanma. Toshkent-2018.

[2] A.Soliyev, M.Nazarov. O'ZBEKISTON QISHLOQLARI (Qishloq joylar geografiyasi) MONOGRAFIYA. Toshkent - 2009

<https://www.researchgate.net/publication/336741378>

[3] Национальная стратегия и план действий по устойчивому развитию горных территорий Республики Таджикистан.

[4] ВОПРОСЫ СОХРАНЕНИЯ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВ В ГОРНОМ АЛТАЕ. Наранов В.Н., Стрельцова Т.А. *Горно-Алтайский государственный университет, г. Горно-Алтайск, Россия*